

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Fil.04.07.**  
**RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**SHERIMBETOVA NARGIZA NIYETBAY QIZI**

**INGLIZ, O'ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDA NUTQ AKTINING  
LINGVOPRAGMATIK VA LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**NUKUS – 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)**

**Sherimbetova Nargiza Niyetbay qizi**

Ingliz, o'zbek va qoraqalpoq tillarida nutq aktining lingvopragmatik va lingvokulturologik tadqiqi..... 3

**Sherimbetova Nargiza Niyetbay qizi**

The linguopragmatic and linguocultural analysis of speech acts in English, Uzbek and Karakalpak languages..... 27

**Шеримбетова Наргиза Нийетбай Қизи**

Лингвопрагматическое и лингвокультурологическое исследование речевого акта на английском, узбекском и каракалпакском языках..... 52

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 55

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Fil.04.07.**  
**RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**SHERIMBETOVA NARGIZA NIYETBAY QIZI**

**INGLIZ, O'ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDA NUTQ AKTINING  
LINGVOPRAGMATIK VA LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi  
AVTOREFERATI**

**NUKUS – 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Fil4500 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz va rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.karsu.uz](http://www.karsu.uz)) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Usarov Ibroximjon Kurpashayevich**  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Najimov Perdebay Aymanovich**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Gavharoy Isroiljon qizi**  
filologiya fanlari doktori (DSc)

**Yetakchi tashkilot:**

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.04.07. raqamli ilmiy kengashning 2026-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch. Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel: (99861) 223-59-25; faks: (99861) 223-59-25; e-mail: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz))

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel: (99861) 223-59-25.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 -yil «\_\_\_»\_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
2026 -yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_dagi №\_\_ raqamli reestr bayonnomasi.

**M.S. Kudaybergenov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

**J.E. Seytjanov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, filologiya fanlari nomzodi, professor

**G.A. Kurbaniyazov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya  
fanlari doktori, professor

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon miqyosida zamonaviy tilshunoslikda pragmatika, diskurs tahlili hamda madaniyatlararo kommunikatsiya yo'nalishlarining rivojlanishi nutq aktlarini real kommunikativ jarayon bilan bog'liq holda o'rganishga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. Bugungi globallashtirish sharoitida turli millat va madaniyat vakillari o'rtasidagi muloqot jarayonining kengayishi nutq birliklarining funksional qo'llanish xususiyatlarini chuqur tahlil qilishni talab etmoqda. Xususan, turli tizimli tillarda iltimos, taklif va kechirim so'rash kabi nutq aktlarining til vositalari orqali ifodalanish usullarini aniqlash samarali muloqotni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan nutq aktlarining lingvopragmatik xususiyatlarini qiyosiy o'rganish kommunikativ strategiyalarni aniqlash, nutq odobi me'yorlarini tavsiflash hamda zamonaviy kommunikativ jarayonlarning qonuniyatlarini belgilash imkonini beradi. Natijada nutq aktlarini lingvopragmatik jihatdan tadqiq etish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Dunyo miqyosida lingvokulturologiya, etnolingvistika hamda madaniyatlararo kommunikatsiya yo'nalishlarining rivojlanishi nutq aktlarini milliy-madaniy tafakkur bilan uzviy bog'liq holda o'rganish zaruratini kuchaytirmoqda. Turli tillarda nutq aktlarining madaniy o'ziga xosligi, kommunikativ strategiyalari hamda ijtimoiy qadriyatlar bilan bog'liqligini aniqlash global kommunikativ jarayonlarning mazmunini chuqurroq anglash imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan ingliz, o'zbek va qoraqalpoq tillarida nutq aktlarining lingvokulturologik jihatdan qiyosiy o'rganilishi milliy tafakkur, nutq madaniyati va kommunikativ xulq-atvor xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Bu kabi tadqiqotlar ko'p madaniyatli kommunikativ muhitda o'zaro tushunishni ta'minlash hamda madaniyatlararo muloqot samaradorligini oshirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'qitishni rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish hamda zamonaviy ta'lim tizimini takomillashtirish<sup>1</sup> jarayonlari nutq jarayonining pragmatik va madaniy jihatlarni chuqur o'rganish zaruratini oshirmoqda. Xususan, turli tillarda nutq aktlarining kommunikativ va madaniy xususiyatlarini aniqlash, ularni qiyosiy tahlil qilish hamda amaliy nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu jihatdan nutq aktlarini lingvopragmatik va lingvokulturologik jihatdan tadqiq etish til o'qitish metodikasini takomillashtirish, nutq madaniyatini rivojlantirish hamda xalqaro kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqot natijalari tilshunoslik nazariyasini boyitish bilan birga amaliy kommunikatsiya samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu siyosiy va ijtimoiy kontekstda ingliz, o'zbek va qoraqalpoq tillaridagi

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori.

nutq aktlarini lingvopragmatik va lingvokulturologik jihatdan tahlil qilish dolzarb ilmiy ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son farmoni; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 5 maydagi "Ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-76-son farmoni; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 20 oktyabrdagi "2020-2030 yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini 2025-2026 yillarda amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-308-sonli qarori va boshqa sohalarga oid normativ-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur ilmiy tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborot jamiyati va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy hamda ma'naviy-ma'rifiy jihatdan rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Jahon tilshunosligida nutq akti sotsiolingvistik yondashuvning rivojlanishi bilan bog'liq holda shakllanib, uning ijtimoiy va madaniy jihatlari keng qamrovda o'rganilmoqda. J.L. Austin nutq aktini lokutiv, illokutiv va perlokutiv aktlarga ajratib, uni nutqiy faoliyat sifatida asoslab bergan bo'lsa, J.R. Searle ushbu nazariyani yanada rivojlantirdi, P. Grice esa nutq aktlarini pragmatik jihatdan o'rganish mexanizmini ishlab chiqdi, lingvistik voqealanishi A. Trosborg va A. Martinez-Flor modellari empirik asos bo'lib xizmat qildi. E. Sapir, B.L. Whorf, E. Goffman, S. Levinson, P. Brown kabi olimlar nutq aktining ijtimoiy funksiyalari, madaniy ahamiyati va kommunikativ roli haqida yangi g'oyalarni ilgari surdilar va G. Hofstede va H. Triandis madaniy o'lchovlari harbir madaniyat kodini muloqot uslublarini ochib berishda asos bo'ldi<sup>2</sup>.

Shuningdek, rus tilshunosligida ham nutq omillari, janrlari, me'yorlari va pragmatik yondashuvlar ustida ishlagan N.D. Arutyunova, T.V. Shmeleva, V.I. Karasik, G.G. Matveeva kabi tadqiqotchilar o'z hissalarini qo'shdilar<sup>3</sup>.

---

<sup>2</sup> Austin, J.L. How to do things with words. - Oxford: Oxford University Press, 1962. -16 p.; Searle, J. R. Speech Acts. 1969; Expression and Meaning. 1976 1-16 p. Grice, H. P. Logic and Conversation. In: Cole, P., Morgan, J. (eds.) Syntax and Semantics, Vol. 3: Speech Acts. New York: Academic Press, 1975. -45 p.; Trosborg, A. Interlanguage pragmatics. - Mouton de Gruyter Berlin: New York. 1995, -378-384 p.; Martínez-Flor, A. A theoretical review of the speech act of suggesting: Towards a taxonomy for its use in FLT. Revista alicantina de estudios ingleses, No. 18 (Nov. 2005); p. 174; Whorf, B. L. Language, Thought, and Reality: Selected Writings of Benjamin Lee Whorf. MIT Press. 1956. – pp. 212-214.; Goffman, E. Interaction Ritual: Essays on Face-to-Face Behavior. – New York: Pantheon Books, 1967. – P. 5.; Brown, P., Levinson, S. C. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge University Press. 1987, - 70-71 p.; Hofstede, G., Hofstede, G. J., & Minkov, M. Cultures and Organizations. - Software of the Mind. McGraw-Hill, 2010. -61-281 p.; Triandis, H. C. Individualism & Collectivism. - Westview Press, 1995. - 43-46 p.

<sup>3</sup> Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. М.: Языки русской культуры, 1999, с.42; Шмелева Е.Н. Речевой этикет и нормы вежливости. М., 2000, с. 17; Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002, с. 106; Матвеева С.А. Речевые жанры в контексте

O'zbek tilshunosligida Sh. Safarov nutq aktlarini pragmatik jihatdan nazariy ilmiy asosda tadqiq qilgan bo'lsa, uning shogirdlari A. Nurmonov, N. Mahmudov, M. Hakimov va S. Mo'minovlarning ishlari ushbu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar orqali o'zbek tilshunosligida nutq aktlari nazariyasining ilmiy asoslari shakllanib bormoqda<sup>4</sup>. Mazkur nazariyani qiyosiy o'rganish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Qoraqalpoq tilshunosligida ushbu mavzu doirasida A. Nawrızova qoraqalpoq nutq etiketi birliklarini tasniflab ko'rsatgan bo'lsa, Z. Uteshova nutq etiketi metodikasini ilgari surgan, R. Turdieva esa tilak va iltifot nutq taktikalariga oid izlanishlar olib borgan<sup>5</sup>.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Qiyosiy tilshunoslik, tarjimashunoslik va adabiyotshunoslik masalalari" bilan bog'liq ingliz, o'zbek va qoraqalpoq tillarida nutq aktining lingvopragmatik va lingvokulturologik tadqiqi mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ingliz, o'zbek va qoraqalpoq tillarida iltimos, taklif va kechirim so'rash nutq aktlarining lingvistik realizatsiya modellari va madaniy o'lchovlar asosida lingvopragmatik va lingvokulturologik xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

nutq aktlari nazariyasini lingvopragmatika va lingvokulturologiya nuqtayi nazaridan qayta ko'rib chiqish, mazkur yo'nalishlar kesishuvida yuzaga keladigan ilmiy qarashlarni tizimlashtirish;

J. Austin va J. Searle tomonidan ishlab chiqilgan nutq aktlari nazariyasini lingvopragmatik jihatdan boyitish maqsadida yangi terminlarni hamda sintaktik tahlil tamoyillarini ishlab chiqish va ularning metodologik zaruratini asoslash;

badiiy asarlar dialoglari misolida A. Trosborg va A. Martinez-Flor modellariga tayangan holda, ingliz, o'zbek va qoraqalpoq tillarida iltimos, taklif hamda uzr so'rash nutq aktlarining pragmatik realizatsiya usullari va strategiyalarini qiyosiy jihatdan aniqlash;

G. Hofstede va H. Triandisning madaniy o'lchovlari asosida qiyoslanayotgan xalqlarning ijtimoiy psixologiyasi va muloqot madaniyatining tilda aks etishini o'rganish hamda uch tildagi nutq aktlarining

---

культуры. – Казань, 2008, с. 88;

<sup>4</sup> Сафаров, Ш. Прагмалингвистика. Монография. - Тошкент, 2008, - 6–12 с. Нурмонов А., Ҳақимов М. Лингвистик прагматиканинг назарий шаклланиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 2001, 4-сон. 54-58 б.; Маҳмудов Н. Нутқнинг жўялиги // Ўзбек тили ва адабиёт, 2007. 3-сон. -13-17 б.; Ҳақимов М. Ўзбек тилида матнинг прагматик талқини. ДДА. Тошкент, 2001. -39 б.

<sup>5</sup> Turdiyeva, R. (2022). O'zbek, ingliz va qoraqalpoq tillarida milliylikga yo'naltirilgan nutq taktikasi sifatida tilak va iltifot. *Innovative Development in Educational Activities*, 1(6), 356–358. Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/634>; Navrozova A.K. Qoraqalpoq tilidagi etiket so'zlar: Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Nukus: Qoraqalpoq Gumanitar Fanlar IITI, 2019. – 134 b.; Uteshova Z.Kh. The system of activities for learning English speech etiquette for 8–9 grade Karakalpak students. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 2021, 10(3), 3885–3896.

lingvokulturologik xususiyatlarini dalillash.

**Tadqiqot obyekti** ingliz, o'zbek va qoraqalpoq tillaridagi badiiy asarlar dialoglarida uchraydigan nutq aktlari (iltimos, taklif va uzr so'rash) tanlangan.

**Tadqiqot predmeti** ingliz, o'zbek va qoraqalpoq tillaridagi nutq aktlarining lingvopragmatik xususiyatlari A. Trosborg va A. Martinez-Flor modellariga tayangan holda, lingvokulturologik xususiyatlari esa G. Hofstede va H. Triandis modellariga asoslangan holda madaniy kontekstdagi o'lchovlari hamda kommunikativ funksiyalaridir.

**Tadqiqot usullari:** qiyosiy tahlil; deskriptiv (tasviriy) tahlil; lingvopragmatik tahlil usuli; lingvokulturologik tahlil usuli; kontekstual tahlil; kontent tahlil; diskursiv tahlil; statistik tahlil usuli.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

nutq aktlari nazariyasi lingvopragmatik va lingvokulturologik yondashuvlar uyg'unligida tadqiq etilib, muloqot odobini tartibga soluvchi lisoniy iboralarning ijtimoiy-madaniy o'lchovlari aniqlangan;

Austin va Searle nutq aktlari nazariyasini lingvopragmatik tahlil qilishni boyitish maqsadida yangi terminlarni sintaktik jihatdan tahlil qilish zaruriyati asoslangan va ularning ilmiy muomalaga kiritilishi isbotlangan;

ingliz, o'zbek va qoraqalpoq tillarida iltimos, taklif va uzr so'rash nutq aktlarining lingvopragmatik xususiyatlari Trosborg hamda Martinez-Flor modellari asosida badiiy asarlar materiallari orqali tizimli ravishda dalillangan;

ingliz, o'zbek va qoraqalpoq tillaridagi iltimos, taklif va uzr so'rash nutq aktlarining lingvokulturologik xususiyatlari Hofstede va Triandisning madaniy o'lchovlari asosida badiiy asarlar misolida tahlil qilinib, ularning milliy-madaniy farqlari va o'xshashliklari ilmiy jihatdan asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** ingliz, o'zbek va qoraqalpoq tillarida iltimos, taklif va kechirim so'rash nutq aktlarining lingvopragmatik hamda lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlashga xizmat qildi. Trosborg va Martínez-Flor modellari asosida nutq aktlarining strukturaviy va funksional turlari tizimlashtirildi, Hofstede va Triandis nazariyalari asosida esa madaniy omillarning ushbu aktlar realizatsiyasiga ta'siri ochib berildi. Badiiy asarlardan tanlab olingan dialoglar asosida o'tkazilgan kontent, diskursiv va statistik tahlillar natijasida uch tilda nutq aktlarining ifodalanish shakllari, bevosita va bilvosita strategiyalari hamda yumshatish vositalaridagi farqlar aniqlandi. Olingan natijalar xorijiy tillarni o'qitish, madaniyatlararo kommunikatsiya, tarjima amaliyoti hamda pragmatika va lingvokulturologiya fanlari doirasida amaliy qo'llanishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi material tanlashda belgilangan ilmiy mezonlarga qat'iy amal qilingani hamda uch til (ingliz, o'zbek va qoraqalpoq) bo'yicha badiiy asarlardan tanlab olingan dialoglar asosida jami 180 ta misol 3 nutq akti turlarining (lingvopragmatik jihat uchun 90 ta va lingvokulturologik jihat uchun 90 ta) tahlil qilingani bilan ta'minlandi. Bunga qo'shimcha har bir

maqolada 15 ta misoldan jami 150 ta misol tahlil qilindi. Nutq aktlari Trosborg va Martínez-Flor modellari asosida tizimli tasniflanib, kontent, diskursiv va statistik tahlil metodlari orqali tekshirildi. Lingvokulturologik talqinlar Hofstede va Triandis nazariyalari doirasida asoslab berildi, bu esa natijalarning nazariy va empirik jihatdan mosligini ko'rsatadi. Turli tahlil bosqichlarida bir xil tendensiyalarning qayd etilishi hamda statistik ko'rsatkichlar orqali xulosalarning barqarorligi tasdiqlanishi tadqiqot natijalarining ishonchli ekanini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalari ilmiy ahamiyati J. Austin va J. Searle nutq akti teoriyasi asosida o'rganilishi iltimos, taklif va kechirim so'rash nutq aktlarini lingvopragmatik jihatdan lingvistik realizatsiya qoliplari asosida va lingvokulturologik jihatdan madaniy o'lchovlar asosida analiz qilishga ilmiy baza bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shuni ko'rsatadi, J. Austin va J. Searle nutq aktlar teoriyasini asosida yangi terminlar: imlokutiv akt (imlocutive act), emotolokutiv akt (emotolocutive act), medialokutiv akt (medialocutive act), irrolokutiv akt (irrolocutive act), konformativ akt (confirmative act), reverslokutiv akt (reverselocutive act), affektolokutiv akt (affectolocutive act), digital-lokutiv akt (digital-locutive act) turlari stilistik analizi qilish ahamiyatini asoslash raqamli diskursni yangi yo'nalishga olib chiqadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ingliz, o'zbek va qoraqalpoq tillarida nutq aktining lingvopragmatik va lingvokulturologik xususiyatlarini ochib berish bo'yicha olingan ilmiy natijalar quyidagi yo'nalishlarda joriy etilgan:

nutq aktlari nazariyasi lingvopragmatik va lingvokulturologik yondashuvlar uyg'unligida tadqiq etilib, muloqot odobini tartibga soluvchi lisoniy iboralarning ijtimoiy-madaniy o'lchovlari bilan bog'liq ilmiy yangiliklardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "Qoraqalpog'iston" teleradiokanalining davlat muassasasining "Kush bilimde" va "Ruwxiylik bostani" nomli ko'rsatuv va eshittirishlarini tayyorlashda foydalanilgan ("Qoraqalpog'iston" teleradiokanalining davlat muassasasining "Kush bilimde" va "Ruwxiylik bostani" ko'rsatuv va eshittirishlari 2025-yil 16-maydagi 05-22/289-son ma'lumotnomasi). Natijada, shaxslararo munosabatlarni boshqarishda lingvomadaniy va lingvopragmatik omillarning ahamiyatini, nutq odobining o'zaro bog'langan lisoniy o'lchovlarini keng jamoatchilikka ilmiy-ommabop shaklda tushuntirib berishda samarali bo'lgan;

Austin va Searle nutq aktlari nazariyasini lingvopragmatik tahlil qilishni boyitish maqsadida yangi terminlarni sintaktik jihatdan tahlil qilish zaruriyati asoslangan va ularning ilmiy muomalaga kiritilishiga doir xulosalardan 2017–2020-yillarda bajarilgan FA-FI-005 raqamli "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini ilmiy o'rganish" mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2025-yil 17-iyundagi 333/1-son ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur loyiha doirasida nutq aktlarining pragmatik va sintaktik

xususiyatlarini tizimlashtirish, sohani yangi ilmiy terminlar bilan boyitish hamda badiiy matnlardagi muloqot tizimining lingvistik tabiatini aniqlash imkonini bergan;

ingliz, o'zbek va qoraqalpoq tillarida iltimos, taklif va uzr so'rash nutq aktlarining lingvopragmatik xususiyatlari Trosborg hamda Martinez-Flor modellari asosida badiiy asarlar materiallari orqali tizimli ravishda dalillanganligiga doir natijalar Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi huzuridagi Davlat tilini rivojlantirish departamenti faoliyatiga 10-son bayonnomasi bilan joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengash huzuridagi Davlat tilini rivojlantirish departamentining 2025-yil 2-maydagi 11-09/5-06/444-son ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur ilmiy xulosalar departament majlislarida ma'ruza sifatida tinglanib, milliy tilning ijtimoiy nufuzini oshirish, mutaxassislarning kasbiy mahoratini yuksaltirish hamda nutqiy muloqot madaniyatini takomillashtirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqishda asosiy manba bo'lib xizmat qilgan;

ingliz, o'zbek va qoraqalpoq tillaridagi iltimos, taklif va uzr so'rash nutq aktlarining lingvokulturologik xususiyatlari Hofstede va Triandisning madaniy o'lchovlari asosida badiiy asarlar misolida tahlil qilinib, ularning milliy-madaniy farqlari va o'xshashliklariga oid xulosalar Berdaq nomidagi Qoraqalpoq adabiyoti tarixi davlat muzeyi faoliyatiga tadbiiq etilgan (Berdaq nomidagi Qoraqalpoq adabiyoti tarixi davlat muzeyining 2025-yil 2-iyundagi 01-02/03-119-son ma'lumotnoma). Natijada, muzeydagi yozma adabiyot manbalarini ilmiy tavsiflash, qoraqalpoq nutqiy madaniyati tarixini eksponatlar misolida yoritish hamda adabiy meros namunalariining kommunikativ qiymatini ochib berishda nazariy-metodik asos bo'lib xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 4 xalqaro va 3 respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi ro'yxatidagi ilmiy jurnallarda 8 ta ilmiy maqola, shundan 5 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarida nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, umumiy xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 144 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, usullari tavsiflangan, tadqiqot obyekti, predmeti aniqlangan, ishning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy-amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar,

dissertatsiyaning tuzilishi hamda hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“So'ylew aktiniń teoriyalıq tiykarları”** deb nomlanib, ushbu bob uch paragraftan iborat bo'lib, unda nutqaktari tilshunoslikda klassik, pragmatik va texnologik jihatdan o'rganilishining metodik mazmuni va mohiyati yoritilgan. Shuningdek, tanlab olingan badiiy asarlar haqida qisqacha ma'lumot berilgan.

Charles Sanders Peirce va Gottlob Frege kabi jahon olimlarining ishlari pragmatika va performativlik sohalarining rivojlanishida muhim manba bo'lgan. Tilshunoslikda keng qo'llaniladigan “nutq akti” termini J. L. Austinning (1911–1960) ishlanmalari asosida shakllangan bo'lib, u shaxslararo kommunikatsiyada so'zlovchi va tinglovchi harakatlari bilan bog'liq bo'lgan nutqni tahlil qilish konsepciyasini bildiradi<sup>6</sup>.

Nutq akti insonning til orqali qandaydir amaliy harakatni bajarishini ifodalovchi birlik bo'lib, so'zlovchi tomonidan maqsadli niyat bilan aytilgan va tinglovchiga mo'ljallangan ta'sir ko'rsatishga qaratilgan nutq birligi hisoblanadi. Odatda u faqat “so'z aytish” emas, balki buyruq berish, so'rash, kechirim so'rash, va'da berish, ishontirish, rahmat aytish kabi harakatlarni amalga oshiruvchi nutq sifatida qaraladi. Nutq harakatlari bir so'z (“Kechirasiz”) yoki gap (“Kechirganim uchun kechirasiz.”) yoki kommunikatsiyada harakat bajaruvchi Bevosita yoki bilvosita ishlatilgan imo-ishora va tana harakatlari orqali ifodalanadi. Nutq aktlari nazariyasi pragmatika sohasida barcha masalalarni o'z ichiga olmasa ham, ushbu sohaning yetakchi va ta'sirchan nazariy ko'rinishlaridan biri sifatida muhim hisoblanadi. Nutq aktlari bo'yicha dastlabki tizimli izlanishlar J. Austin tomonidan olib borilgan bo'lib, keyinchalik bu nazariya til falsafasi doirasida J. Searle tomonidan yanada chuqurroq yoritilgan. Austin nutq aktlarini lokutiv, illokutiv va perlokutiv aktlarga ajratgan va illokutsiyaviy aktlarni beshta kategoriya «verdiktiv», «ekzertiv», «komissiv», «bihabitiv» va «ekspozitiv»ga bo'lgan. Searle esa propozicaviy mazmun va illokutiv kuch o'rtasidagi farqni aniqlash orqali bu klassifikatsiyani yanada takomillashtirgan<sup>7</sup>.

O'zbek olimlari nutq aktlarini nazariy jihatdan chuqur o'rganib, ularni tilshunoslikning ilmiy asoslariga tadbiiq qilishgan. Xususan, Sh. Safarov ushbu yo'nalishda asosiy nazariy ishlarni olib borgan va nutq aktlarining lingvopragmatik mohiyatini tahlil qilishga katta hissa qo'shgan. Uning shogirdlari A. Nurmonov, N. Mahmudov, M. Hakimov va S. Mominov bu izlanishlarni davom ettirib, o'zbek tilida nutq aktlarining kommunikativ, ijtimoiy va madaniy jihatlarini chuqur tadqiq qilganlar. Shu orqali ular tilshunoslikda nutq aktlarini ilmiy asosda tushuntirish va amaliy tadqiqotlarda qo'llash imkoniyatlarini kengaytirgan.

Qoraqalpoq olimlari qoraqalpoq tilidagi nutq etiketi bo'yicha izlanishlar olib borgan. A. Nawrızova qoraqalpoq nutq etiketi birliklarini tizimli tarzda

---

<sup>6</sup> Peirce, C.S. Collected Papers of Charles Sanders Peirce, vols. 1–8. Harvard University Press; Frege, G. (1892/1980). On Sense and Reference, in Translations from the Philosophical Writings of Gottlob Frege, Oxford: Blackwell; Austin, J.L. How to do things with words. - Oxford: Oxford University Press, 1962. -16 p.

<sup>7</sup> Austin J. L. How to Do Things with Words. – Oxford: Oxford University Press, 1962. – 151-163 p.

klassifikatsiyalab, ularni ilmiy asosda tahlil qilgan. Z. Uteshova nutq etiketini o'quvchilarga o'rgatish metodikasini ishlab chiqqan va amaliy jihatdan tadbir qilgan. R. Turdieva esa qoraqalpoq tilidagi tilak va iltifot nutq etiketi taktikalari bo'yicha izlanishlar olib borib, ularni ilmiy tadqiqot rejalariga muvofiq amalga oshirgan. Qoraqalpoq tilida nutq aktlarini o'rganishlar yetarli bo'lmagani uchun ularning qoraqalpoq tilidagi nutq etiketi bo'yicha izlanishlari ilmiy ishni obyektni yoritishga xizmat qilgan.



Mazkur dissertatsiyaning II bobi “Inglis, o'zbek ham qaraqalpaq tillerinde so'ylew aktini lingvopragmatik o'zgesheliklari” deb nomlanib, iltimos, taklif va kechirim so'rash nutq aktlarining lingvopragmatik jihatdan xususiyatlari yoritib berilgan. Anna Trosborgning to'rt strategiyali modeli asosida iltimos so'zlashuv aktining lingvopragmatik tahlili ilmiy ishning amaliy bo'limida quyidagi jadval shakllarida olib borildi.

Jadval 2.1.

Kategoriyalar	Strategiyalar	Bildirilishi
1.To'g'ridan-to'g'ri (direct)	Zarurlik (obligation)	Modal fe'llar orqali (must, have to)
	Ijro etish (performative)	Iltimos fe'li: ask, request bilan va yumshatish shakli (I am asking to clean)
	Buyruq (imperative)	Fe'llar bilan (clean the room)
2.A'naviy bilvosita (conventionally indirect hearer-based)	Qobiliyat (ability)	Modal fe'llar (can/could)
	Istak (willingness)	Tinglovchidan bajarishini xohlash (would you lend)
	Ruxsat so'rash (permission)	Modal fe'li orqali (May I ...)
	Taklif (suggestory)	“How about...?”, “Why don't...?”) konstruksiyalari bilan
3.A'naviy bilvosita (conventionally indirect speaker-based)	Istak (Wishes)	So'zlovchini xohishi (I'd like to ...)
	Xohish/zaruriyat	“I want/I need to ...”
4. Bilvosita (Indirect)	Imo-ishoralalar (hints)	kontekst orqali bilish yoki bilinmas “I have to be at airport in half an hour.

Jadval 2.1. Trosborg (1995) iltimos nutq akti klassifikatsiyasi<sup>8</sup>

Mazkur nutq akti turini tahlil qilish uchun ingliz tilida A. Millerning

<sup>8</sup> Trosborg, A. Interlanguage Pragmatics: Requests, Complaints and Apologies. Berlin: Mouton de Gruyter, 1995. p.205

“Death of a salesman”, o‘zbek tilida O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” va qoraqalpoq tili uchun Sh. Seytovning “Íg‘bal soqpaqlari” asarlari asosida amaliy bo‘limini natijalari olindi.

Ingliz tilida: 1) Happy: Isn’t that terrible? Don’t leave again, will you? 2) You’ll find a job here. You gotta stick around.

O‘zbek tilida: 1) Choy damlab bera olasizmi? 2) Menga yordam bering, iltimos.

Qoraqalpoq tilida: 1) -Qolim bos emes, dostim, - dedi. Mınanı alıp jiber, soń sorasarmız. 2) -Sen, bala, poshtag‘a kirip shıg‘a almag‘ansańdag‘ı?

Tahlil natijalari iltimoslarning tildagi ifodasi va shakli har bir xalqning madaniy normalari hamda kommunikativ ko‘nikmalariga bog‘liqdir. Xususan, ingliz tili diskursida iltimoslar bevosita va an’anaviy xushmuomalalik shakllari o‘rtasida teng taqsimlangan (har biri 40%). Masalan, yaqin munosabatlarda qo‘llaniladigan “Shut up!” yoki “Go on to sleep” kabi buyruq maylidagi iltimoslar bilan bir qatorda, tinglovchining shaxsiy erkinligini hurmat qiladigan “Can’t you stay...?” yoki “I wish you’d...” kabi modal so‘roq strukturalari ham faol qo‘llanilgan. Ushbu holat ingliz tili pragmatikasidagi “shaxsiy avtonomiya” tamoyilining ustuvorligini tasdiqlaydi.

Aksincha, o‘zbek tili misollarida xushmuomalalik strategiyasining mutlaq ustunligi kuzatildi. Barcha tahlil qilingan misollarning 80 foizi an’anaviy xushmuomalalik strategiyasiga kiradi. O‘zbek tilida iltimos aktlari, ko‘pincha, “iltimos” leksik markeri hamda fe‘llarning so‘roq shakli (“...bera olasizmi?”, “...imzolab bering”) orqali reallashadi. Bu o‘zbek madaniyatida suhbatdoshga nisbatan yuqori darajadagi hurmat va an’anaviy xushmuomalalik normalarining barqarorligini ko‘rsatadi.

Qoraqalpoq tili pragmatikasida esa o‘ziga xos xususiyat sifatida Bevosita strategiyalarning ustunligi (70%) aniqlangan. Sh. Seytov asarlaridagi “Stakanni ber”, “Olib yubor” yoki “Kela qolsang bo‘lmaydimi” kabi misollar grammatik jihatdan buyruq shaklida bo‘lsa-da, ular ijtimoiy kontekstda agressivlikni emas, balki suhbatdoshlar o‘rtasidagi yaqinlik va ishonch munosabatlarni anglatadi. Shu bilan birga, qoraqalpoq tilida iltimosning bilvosita turlari, ya‘ni ishoralar orqali ifodalash strategiyalari ham (“Sochim o‘sib ketdi”) kommunikativ samaradorlikni ta‘minlovchi vosita sifatida tanlangan.

Umumlashtirib aytganda, iltimos aktining amalga oshishi ingliz tilida grammatik modal, o‘zbek tilida leksik etiket, qoraqalpoq tilida esa ijtimoiy kontekstual xarakterga ega ekanligi ilmiy jihatdan isbotlangan. Bu madaniyatlararo farqlar tillarning pragmatik tizimining o‘ziga xosligini hamda milliy so‘zlashuv madaniyatining ko‘rsatkichi bo‘lib hisoblanadi.

Alicia Martínez-Flor taklif nutq aktini va xushmuomalalik nazariyasini asos qilib, ularni yagona tizimga keltirgan. Taklifni lingvistik amalga oshirish strategiyalari uch asosiy turga bo‘linadi: Bevosita, an’anaviy va bilvosita shakllar.

Bir tomondan, nutq akti nazariyasi muhim ahamiyatga ega, chunki

Kasper va Schmidt (1996) ta'kidlagan universal pragmatik strategiyalarning Bevosita va bilvosita turlaridan foydalaniladi. Ikkinchi tomondan, bu strategiyalar Brown va Levinson (1978, 1987) tomonidan ishlab chiqilgan xushmuomalalik nazariyasidagi ochiq va yashirin turdagi atamalar bilan bog'liqdir. Ushbu ikki nazariyadan tashqari, Bardovi-Harlig va Hartfordning (1996) moslik maksimasi ham hisobga olingan bo'lib, u muayyan vaziyatda so'zlovchilarning bir-biriga nisbatan ijtimoiy maqomiga qarab maxsus strategiyalarning mosligini qamrab oladi. Nihoyat, yuqorida ko'rib chiqilgan madaniyatlararo pragmatika va tillararo pragmatika sohalaridagi ilg'or tadqiqotlarga tayangan holda, ushbu tadqiqotlarda qo'llanilgan bir qator lingvistik amalga oshirish vositalari qabul qilindi.

**Jadval 2.2.**

<b>Turi</b>	<b>Strategiya</b>	<b>Bildirilishi</b>
<b>1.Bevosita (direct)</b>	Bajaruvchi fe'llar (performative verb)	I suggest that you ... I advise you to ... I recommend that you ...
	Taklif ot so'z turlari bilan bildirilish	My suggestion would be ...
	Buyruq	Try using ...
	Inkor buyruq	Don't try to ...
<b>2.An'anaviy shakllar (Conventionalised forms)</b>	Maxsus konstrukciyalar (so'roq shaklda)	Why don't you ...? How about ...? What about ...? Have you thought about ...?
	"Let's ..." konstrukciyasi	Let's ...
	Ehtimollik	You can ... You could ... You may ... You might ...
	Maslahatga oid zarurlik (should)	I should ...
	Zarurlik (need)	I need to ...
	Shart mayil (Conditional)	If I were you, I would ...
<b>3.Bilvosita</b>	Umumiy	One thing (that you can do) would be ... Here's one possibility: ... There are a number of options that you... It would be helpful if you... It might be better to ... A good idea would be ...

		It would be nice if...
	Ishoralar	I've heard that...

Jadval 2.2. Martínez-Flor modeli asosida taklif nutq akti klassifikatsiyasi<sup>9</sup>.

**Ingliz tilida:** Linda: (1) *Why don't you tell those things to Howard, dear?*  
Willy [encouraged]: *I will, I definitely will. Is there any cheese?*  
Linda: (2) *I'll make you a sandwich.*

**O'zbek tilida:** (1) *Hozir do'konga tushib kelaylik. (2) Choy damlaylik, gaplashib o'tiraylik.*

**Qoraqalpoq tilida:** (1)-*Ketemeniñiz qalay, ballar-aw, men minaw Maqsettiñ qonaq asısın bere qoyayın dep edim- deydi qıyılıp. (2)-Ishkerileyik, - dedi dayım.*

Izlanish obyekti sifatida olingan badiiy matnlardan yig'ilgan misollar har bir til uchun 10 tadan tanlanib, Martínez-Flor (2005) klassifikatsiyasiga muvofiq tahlil qilindi. Natijada, uch tilning lingvopragmatik modellari o'rtasida sezilarli o'xshashliklar va o'ziga xosliklar aniqlandi:

1) Strategiyalarning qo'llanilish tendensiyasi: Tahlil natijalariga ko'ra, qoraqalpoq tilida Bevosita taklif berish strategiyasi eng yuqori ko'rsatkichni (70%) ko'rsatadi. Bu ko'pincha buyruq mayli va "Let's" formasiga tenglashtirilgan nutq akti orqali amalga oshiriladi. O'zbek tilida ham Bevosita strategiyalar ustun bo'lsa-da (60%), an'anaviy va bilvosita usullar orqali taklifning pragmatik kuchini yumshatish tendensiyasi kuchli. Ingliz tilida esa, Bevosita va an'anaviy strategiyalar teng (har biri 40%) bo'lib, bu tinglovchining "yuzini saqlash" strategiyasining sintaktik darajada mustahkamligini ko'rsatadi.

2) Lingvistik realizatsiya modellari: Qoraqalpoq tilida taklifning lingvistik shakli ko'pincha buyruq + murojaat so'zlari (masalan: "To'rlen", "Alip jiber, jora") ko'rinishida bo'ladi. Grammatik jihatdan qat'iy buyruq shakli ishlatilsa-da, jora, jeñgey kabi leksikal modifikatorlar taklifga yaqinlik va xushmuomalalik rangini beradi. O'zbek tilida takliflar ko'pincha an'anaviy shakllarda "Let's" konstruktsiyasiga teng "fe'l + qo'shimcha" (masalan: Keling, mehmon chaqiraylik; Choy damlaylik) orqali ifodalanadi. "Hozir" yoki "Keling" kabi komponentlar taklifning ijtimoiy samaradorligini ta'minlovchi pragmatik vosita sifatida xizmat qiladi. Ingliz tilida taklifning realizatsiyasi savol gaplar (masalan: Why don't you...?) va modal fe'llar (masalan: should, have to) orqali bildiriladi. Bu model tinglovchiga tanlov erkinligini berish orqali taklifning Bevosita kuchini pasaytirishga yo'naltirilgan.

Kechirim so'rash nutqida yuzaga kelgan ijtimoiy kelishmovchiliklarni yumshatish va qatnashchilar o'rtasidagi yaxshi munosabatlarni tiklashga yo'naltirilgan tizimli lingvistik jarayon. A. Trosborg va M. Owen kabi

<sup>9</sup> Martínez-Flor, A. A theoretical review of the speech act of suggesting: Towards a taxonomy for its use in FLT. Revista alicantina de estudios ingleses, No. 18 (Nov. 2005); p. 175

tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, kechirim so'rash strategiyalari nutq egasining javobgarlik darajasiga qarab to'rt asosiy ierarxik kategoriya doirasida tasniflanadi<sup>10</sup>.

**Jadval 2.3.**

Kategoriya va strategiya turi	Strategiyaning tavsifi va maqsadi	Tarkibiy qismlar (Sub-strategiyalar)
0-kategoriya: Kechirimdan bosh tortish (Opting out)	Nutq egasi javobgarlikni to'liq zimmasiga olmaydi. Asosiy maqsad munosabatni yumshatish emas, balki shaxsiy obro'ni – "yuzni saqlash" (face-saving) ni ta'minlashdir.	0.1. Javobgarlikdan ochiqdan-ochiq bosh tortish  0.2. Javobgarlikdan yashirin voz kechish  0.3. O'zini oqlash (Justification)  0.4. Aybni boshqalarga yuklash  0.5. Shikoyatchiga hujum qilish
I-kategoriya: Bosh tortuvchi strategiyalar (Evasive strategies)	Javobgarlik to'liq qabul qilinmaydi, biroq xatoning ahamiyati pasaytiriladi. Vaziyat "arzimas narsa" sifatida ko'rsatilib, ayb darajasi kamaytiriladi.	1.1. Minimizatsiya qilish (kichraytirish)  1.2. Dastlabki shartlarni shubha ostiga olish  1.3. Aybni (qisman) boshqalarga

<sup>10</sup> Trosborg, A. Interlanguage pragmatics: requests, complaints, apologies.- Mouton de Gruyter, Berlin. 1995, -373-383 p.

		yuklash
II-kategoriya: Javobgarlikni qabul qilish (Acknowledgement of responsibility)	Nutq egasi javobgarlikni bilvosita yoki ochiq tan oladi. Tinglovchining ijtimoiy obro'sini qo'llab-quvvatlash va munosabatlarni tiklashga qaratilgan.	2.1. Yashirin qabul qilish  2.2. Ochiq qabul qilish  2.3. Qasdsiz amalga oshirilganini bildirish  2.4. Shaxsiy kamchilikni qabul qilish  2.5. Uyatchanlik/hijolatlikni bildirish  2.6. Aybini ochiq tan olish
III-kategoriya: Tushuntirish yoki oqlash (Explanation or account)	Vaziyatni yumshatuvchi sabablar keltiriladi. Harakatning noto'g'riligi tan olinadi, lekin u "uzrli sabab" bilan bog'lanadi.	3.1. Yashirin tushuntirish  3.2. Ochiq tushuntirish
IV-kategoriya: Bevosita kechirim so'rash (Expression of apology)	Maxsus lingvistik formulalar yordamida amalga oshiriladi. Bu nutq aktining eng yuqori darajadagi tan olish bosqichidir.	4.1. Pushaymonlik bildirish (Regret) 4.2. Kechirim taklif qilish (Offer of apology) 4.3. Kechirim so'rash (Request forgiveness)
Tuzatuvchi yordam (Remedial support)	Og'zaki kechirimdan so'ng munosabatlarni mustahkamlash uchun qo'shimcha harakatlar.	5. Tinglovchiga g'amxo'rlik ko'rsatish 6. Takrorlanmaslik

	Kompensatsiya (tovon) turlarini o'z ichiga oladi.	va'dasi 7. Zararni qoplash taklifi (moddiy/ruhiy)
--	---	---

Jadval 2.3. A. Trosborg modeli asosida kechirim so'rash nutq akti.

Kechirim so'rash - bu kommunikativ jarayon ishtirokchilari o'rtasidagi buzilgan ijtimoiy muvozanatni qayta tiklashga yo'naltirilgan nutq akti hisoblanadi. Anna Trosborg modeliga asoslangan ushbu tadqiqotda kechirim so'rash strategiyalarining ingliz, o'zbek va qaraqalpoq tillaridagi badiiy matnlarda namoyon bo'lishi (linguistic realization patterns) qiyosiy tahlil qilingan:

1) *Strategiyalarning socio-madaniy taqsimoti*: Tahlil natijalari ingliz tilidagi muloqotlarda (A. Miller, "Death of a Salesman") kechirim so'rash II kategoriya aybni tan olish strategiyasi asosida qurilishini ko'rsatadi. Bunda personajlar o'z harakatlari uchun shaxsiy mas'uliyatni bo'yinga olish (I shouldn't have...) orqali ichki pushaymonlik tuyg'usini birinchi o'ringa qo'yganlar. Bu G'arb madaniyatidagi "shaxsiy javobgarlik" pragmatik tamoyiliga mos keladi. O'zbek tilida (O'. Hoshimov, "Tushda kechgan umrlar") kechirim so'rashning IV kategoriyasi bevosita kechirim so'rash yetakchi o'rin tutadi. "Kechiring", "Afv eting" kabi aniq fe'l shakllari va "Gunohidan o'ting" kabi an'anaviy teonimik birliklar so'zlovchining niyatini ochiq ko'rsatib, tinglovchining ijtimoiy maqomini yuksaltirishga xizmat qiladi. Qaraqalpoq tilidagi tadqiqotning eng qiziqarli jihati Sh. Seytovning "Ig'bal soqpaqlari" asari misolida kuzatildi. Ushbu tilda kechirim so'rash ko'pincha I kategoriya rad etish yoki aybni minimallashtirish (oldindan keshirim) shaklida yuzaga chiqadi. "Ayipqa jorimassań", "Kewlińe kelmesin", "O'kpeleme" kabi aksiologik birliklar qaraqalpoq xarakteriga xos bo'lib, olar salbiy harakat sodir bo'lishidan avval yuzaga kelishi mumkin bo'lgan noxush ta'sirning oldini olishga yo'naltirilgan. Bu qaraqalpoq madaniyatidagi yaqinlik va hurmat strategiyasining lingvistik ko'rinishidir.

2) *Lingvistik qoliplarning qiyosiy tavsifi*: Ingliz tilida kechirim so'rashda sintaktik qurilmalar (modal fe'llar va shartli gaplar) orqali aybning subyektiv tomoni ochilsa, o'zbek va qaraqalpoq tillarida leksik birliklar (murojaatlar) va tushuntirish strategiyalari (III kategoriya) yetakchi rol o'ynaydi. Masalan, qaraqalpoq tilida aybni kichik bir sabab bilan asoslash ("Saqalińız joq eken...") ijtimoiy to'siqlarni bartaraf etishning ijobiy usuli sifatida tahlil qilindi.

Zamonaviy lingvopragmatikaning metodologik asosini tashkil etuvchi J. Austin va J. Searlarning nutq aktlari nazariyasidagi klassik uch bosqichli model (lokutiv, illokutiv va perlokutiv aktlar) hozirgi kundagi kommunikativ jarayonlarni, ayniqsa, raqamli (digital) va emotsional diskursni to'liq qamrab olishda yangicha talqinlarni talab etadi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi sifatida, quyidagi yangi nutq aktlari tiplarini ilmiy sohaga kiritish va ularning lingvopragmatik xususiyatlarini asoslash tavsifiya etiladi:

Jadval 2.4.

Nº	Tavsiya etilayotgan	Illokutiv yo'nalishi va	Funksional tavsifi
----	---------------------	-------------------------	--------------------

	<b>termin</b>	<b>pragmatik ma’nosi</b>	
1.	Imlokutiv akt (imlocutive act)	Ijtimoiy-psixologik ta’sir ko’rsatishga yo’naltirilgan akt.	Etiket va xushmuomalalik strategiyalari orqali adresatda ijobiy taassurot uyg’otish.
2.	Emotolokutiv akt (emotolocutive act)	Subyektiv emotsional holatni verbalizatsiya qilish akti.	So’zlovchining ichki kechinmalarini (quvonch, g’azab, hayajon) ochiq va intensiv ifodalash.
3.	Medialokutiv akt (medialocutive act)	Media muhitidagi kommunikativ yo’naltirilganlik akti.	Onlayn platformalardagi o’ziga xos bayonlar (komentariya, heshteg) orqali munosabat bildirish.
4.	Irrolokutiv akt (irrolocutive act)	Bilvosita ma’no ifodalovchi nutq akti.	Ironiya, sarkazm va allegoriya orqali ma’noni yashirish yoki kuchaytirish.
5.	Konformativ akt (confirmative act)	Kommunikativ muvofiqlik va ma’qullash akti.	Adresat bilan fikriy birlikni tasdiqlovchi va ijtimoiy aloqani mustahkamlovchi reaksiyalar.
6.	Reverslokutiv akt (reverselocutive act)	Reaktiv-dialogik ma’no transformatsiyasi akti.	Dastlabki illokutiv maqsadga nisbatan berilgan qarshi yoki javob reaksiyasi.
7.	Affektolokutiv akt (affectolocutive act)	Adresatning emotsional fonini boshqarish akti.	Tinglovchini tinchlantirish, ruhlantirish yoki unga emotsional ta’sir o’tkazish.
8.	Digital-lokutiv akt (digital-locutive act)	Virtual-grafik talqin akti.	Messenjerlardagi vizual belgilarning (emoji, smaylik, stiker) xususiyatlarini semantik talqin qilish.

Jadval 2.4. Yangi tavsiya etilayotgan terminlar ifodanishi.

Taklif etilayotgan yangi terminlarning metodologik zarurati klassik nazariyaning zamonaviy tildagi emotsionallik, media-spetsifikalik va pragmatik ma’no qatlamlarini to’liq tushuntirishdagi cheklovlari bilan bog’liq:

*Nazariy ahamiyati:* imlokutiv, emotolokutiv, irrolokutiv, affektolokutiv va digital-lokutiv aktlarning joriy etilishi an’anaviy illokutiv aktlar nomenklaturasini boyitadi va pragmatik tahlilni statik tildan dinamik diskurs darajasiga olib chiqadi.

*Amaliy ahamiyati:* ushbu tasnif badiiy matnlar tahlili, media diskursi, siyosiy ritorika va madaniyatlararo kommunikatsiya masalalarini chuqur o’rganishda universal ilmiy baza bo’lib xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida taklif etilgan yangi nutq aktlari turlari an’anaviy pragmatik modellarni zamonaviy kommunikativ muhitga moslashtirish imkonini beradi. Quyida ushbu aktlarning har biriga tavsif berilib, ingliz, o’zbek va qoraqalpoq tillaridagi misollar bilan dalillandi:

1. Imlokutiv akt (imlocutive act) – bu adresat bilan munosabat o’rnatishda yumshatuvchi yoki etiket normalariga asoslangan strategiya bo’lib, asosiy maqsad ijobiy ijtimoiy ta’sir ko’rsatishdir. Masalan, ingliz tilidagi “I was wondering if you could help me?”, o’zbek tilidagi “Malol kelmasa, yordam bera olasizmi?” va qoraqalpoq tilidagi “Ayıpqa buyirmasañız, járdemlese

alasızba?” kabi strukturalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri buyruqdan qochish va yuzpardani saqlash tamoyiliga asoslangan.

2. Emotolokutiv akt (emotolocutive act) – so‘zlovchining subyektiv sezim-tuyg‘ularini (quvonch, g‘azab, hayajon) to‘g‘ridan-to‘g‘ri va intensiv tarzda verbalizatsiya qilishini anglatadi. Masalan: inglizcha “Hooray! We did it!”, o‘zbekcha “Ura! Nihoyat bajardik!” va qoraqalpoqcha “Bárekella! Aqiri tawıstıq-aw!”. Bu aktlarda lingvistik kuch ma‘lumotga emas, balki emotsional holatning ta‘siriga qaratiladi.

3. Medialokutiv akt (medialocutive act) – zamonaviy media va ijtimoiy tarmoqlar muhitidagi reaktiv munosabat bildirish shakli bo‘lib, kodifikatsiyalangan belgilar bilan xarakterlanadi. Masalan: “That post was lit! 🔥” (ingliz), “Gap yo‘q! 🙌 Zo‘r” (o‘zbek) va “Ájayıp shıg‘ıptı! 👍 #Zor” (qoraqalpoq). Bu yerda heshteglar va qisqa reaksiyalar diskursning pragmatik ma‘nosini kuchaytiruvchi qo‘shimcha instrumentlar bo‘lib kelgan.

4. Irrolokutiv akt (irrolocutive act) – ironiya va sarkazm orqali ta‘sir etish akti bo‘lib, bunda ifoda yuzasidan ijobiy ma‘no berilsa-da, negizida tanqid yoki masxara ma‘nosi yotadi. Masalan: ingliz tilidagi “Oh sure, you’re such a genius!”, o‘zbekcha “Albatta, sen juda dono ekansan!” va qoraqalpoqcha “Berekalla, jalg‘ız gilitni de sindırıp ketiwge úlgeripsen-da!”. Bunday holatlarda haqiqiy ma‘no (implisit) to‘g‘ridan-to‘g‘ri so‘zdan emas, balki kontekst va intonatsiyadan aniqlanadi.

5. Konformativ akt (confirmative act) – adresat bilan fikriy birlikni, hamfikrlikni va ijtimoiy birlikni tasdiqlash maqsadida qo‘llaniladi. Masalan: “Exactly! I couldn’t agree more” (ingliz), “Men ham shunday o‘ylayman” (o‘zbek) va “Gápińız durıs, men sizdi tolıq qollayman” (qoraqalpoq). Bu aktlar fatik aloqa o‘rnatuvchi funksiyani bajarib, suhbatning barqarorligini ta‘minlaydi.

6. Reverslokutiv akt (reverselocutive act) – dastlabki illokutiv maqsadga nisbatan kutilmagan yoki qarshi munosabat bildiruvchi javob akti. Masalan: ingliz tilida “Well, I didn’t expect that reaction...”, o‘zbekcha “Bunday javobni kutmagandim-da...” va qoraqalpoqcha “Bul máselege basqasha qaraw kerek-aw...”. Bu akt ko‘pincha muloqotning yo‘nalishini o‘zgartirishga yoki unga yangi pragmatik tus berishga xizmat qiladi.


7. Affektolokutiv akt (affectolocutive act) – tinglovchining emotsional holatiga ta‘sir etish, uni ruhlantirish yoki tinchlantirishga yo‘naltirilgan perllokutiv effektli akt. Masalan: “Don’t worry. Everything will be fine” (ingliz), “Xavotir olmang. Hammasi yaxshi bo‘ladi” (o‘zbek) va “Sabırlı bolıń, hámmesi jaqsı boladı” (qoraqalpoq). Bu yerda so‘zlovchining lingvistik strategiyasi adresatning psixo-fiziologik barqarorligini ta‘minlashga qaratilgan.

8. Digital-lokutiv akt (digital-locutive act) – virtual kommunikatsiyada grafik belgilar, akronimlar va simvollar (emoji, smaylik, stiker) orqali semantik ma‘no beruvchi usul. Masalan: “🙄”, “...” yoki “LOL” (ingliz), “👉 σ”, “Shu yetarli” (o‘zbek) va “👉”, “Kelistik”, “Boladi” (qoraqalpoq). Bu aktlar tildagi tejamkorlik qonuniyatiga bo‘ysunadi va raqamli texnologiyalar muhitida muloqot tezligini ta‘minlaydi.

Stilistik va pragmatik aloqa yangi nutq aktlarida faqat an'anaviy usulda emas, balki badiiy tasvir vositalari (intonatsiya, inversiya, giperbola) bilan mustahkamlanadi. Stilistika tilning qanday aytilganini (emotsional va ijtimoiy yuk), nutq aktlari esa nima va qanday maqsadda aytilganini (harakat va funksiya) aniqlaydi. Ularning integratsiyasi zamonaviy lingvistik tahlilni yangi kognitiv bosqichga olib chiqadi.

Dissertaciyaning uchinchi bobi **"Inglis, o'zbek hám qaraqalpaq tillerinde so'ylew aktiniń lingvokulturologiyalıq o'zgeshelikleri "** deb nomlanib, ingliz, o'zbek va qaraqalpoq tillarida iltimos, taklif va kechirim so'rash nutq aktlarining lingvokulturologik jihatdan tahlil qilindi. Ilmiy ishni predmeti bo'lgan G. Hofstede va H. Triandis madaniy o'lchamlari asosida madaniy kodlarni ochib berishga va social normalarini ko'rsatishga imkon beradi.

Jadval 3.1.




Jadval 3.1. G. Hofstede modeli asosida 6 madaniy o'lchami<sup>11</sup>.

